

„NASR UL-LAOLIY” ASARIDAGI HIKMATLAR HAMDA „NAZM UL-JAVOHIR”DAGI AYRIM RUBOIYLAR TAHLILI

Usmonaliyeva Azizaxon Xamidjon qizi

Farg’ona davlat universiteti

Filologiya va tillarni o’qitish: o’zbek tili yo’nalishi

3-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Nazm ul-javohir” hamda Hazrat Ali (r.a.) hikmatlari jamlangan “Nasr ul-laoliy” asarlaridagi ayrim hikmat va ruboiylar tahlil qilinadi. Asarda imon, vafodorlik, sabr, adab-axloq, ota-onaga ehtirom kabi yuksak insoniy fazilatlar she’riy va ma’rifiy jihatdan yoritib berilgan.

Annotation

This article analyzes selected maxims and quatrains from Alisher Navoi’s Nazm ul-Javohir and the collection of sayings attributed to Imam Ali (r.a.) known as Nasr ul-Laoliy. The study highlights moral values such as faith, loyalty, patience, etiquette, and respect for parents, presented from poetic and educational perspectives.

Alisher Navoiyning „Nazm ul-javohir” asari pandnoma yo’nalishida bo’lib, hazrat Ali ibn Abutolib hikmatlarining musarra’ ruboiy shaklida qilingan she’riy tarjimalarini o’z ichiga oladi. Asar 1485-yilda Sulton Husayn Boyqaroning „Risola”’siga javob va minnatdorlik izhori tarzida yozilgan. „Nazm ul-javohir” asari to’rtlik she’rlar to’plamining sarlavhasini „She’r durdonalari” yoki „She’riy durdonalar”’ desa bo’ladi. Bu to’rtliklar Hazrat Alining rivoyati bilan aytilgan va she’rga solingan payg’ambar(s.a.v) hadislar – hikmatli so’zlariga bag’ishlangan. Alisher Navoiyning „Nazm ul-javohir” asari O’zbekistonda har tomonlama chuqur o’rganilgan emas. Ma’mura Rashidova asarning ilmiy-tanqidiy matnini tuzib chiqdi va uni filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun dissertatsiya sifatida yoqladi. Navoiyning “Nazmu-l-javohir asari boshdan oyoq ta’lim-

tarbiyaga doir. “Nazmu-l-javohir”da Navoiy elu yurt hayoti tajribasidan kelib chiqqan xulosa va umumlashmalari orqali ezgulik, insoniylik, adolat g’oyalarini keng targ’ib etadi. Kishilarni ma’naviy yuksaklikka ko’tarishga harakat qiladi, moddiy va ma’naviy uyg’unlik qanday bo’lmog’i kerakligi to’g’risida yo’l-yo’riqlar ko’rsatadi.

Navoiy “Nazmu-l-javohir” muqaddimasida yozgan:

Yorab, bu javohirlarniki, manzum etdim,

Chekkanim anga har nuktaki, ma’lum etdim,

Har nuktaga bir tarona marqum etdim,

Ko’p gavhar aning zimnida maktum etdim.

Ma’nosi:

Ey xudo, bu javharlarni she’r bilan yozib chiqdim,

Turli nozik ma’noli so’zlarni terib ularning

(mazmunini) ma’lum qildim.

Har bir shunday so’zga bir ohang berdim.

Ularining orasiga ko’p gavharlarni berkitdim.

Hazrat Ali rivoyat qilganlardan birinchisi bunday: **“Imonu mar’iy yu’rafu bi iymonihi”**. Ma’nosi: *Kishining imoni uning ahdiga vafosida ko’rinadi*. Demak, kishidagi imon, ya’ni ishonch, e’tiqod uning o’z ahdiga vafodorligida bilinadi. Shu fikrni Navoiy she’r bilan bunday bayon etgan:

Imoni aningki, kufrig’a sotir (berkituvchi) erur

Chin nukta demakka ul kishi qodir erur

Har kimsaki, imon ishida mohir erur

Imonini bilki, otidin zohir erur.

Ma'nosi:

Ul kishiki, imoni kufrini yo'qotar ekan,

Chin toza ma'noli so'z demakka qodirdir.

Imon ishida mahorat kasb etgan har bir kimsaning

Imoni uning otidan bilinib turadi.

Ushbu to'rtlikdagi asosiy masala nukta va imondir. **Nukta** – chin toza ma'noli so'z. Bunday so'zni demakka qodir inson sof imon egasi bo'lgan insondir.

“Axuka man asoka fil shiddati” . Falokat yetganda yordamga kelgan kishi birodaringdir. Navoiy bu hikmatni bunday sharh qiladi:

Qardoshing emas ulki qo'yub bosh sanga,

Davlat chog'i qilg'ay o'zni qo'ldosh sanga.

Kim qildi qatig'lig'da vafo fosh sanga,

Ul bo'ldi haqiqat ichra qardosh sanga.

Ma'nosi:

Sen davlatga ega bo'lgan chog'ingda yoningda

Senga bosh qo'yib turgan kishi qardosh emas.

Boshingga og'ir kun kelganida senga vafo

Ko'rsatgan kishi haqiqiy chin qardoshingdir.

“Ad-dib ayolaka tanfa'uhum” . Bu hikmat kishining o'z qaramog'ida bo'lganlarga (oila, bolalar, rafiqasi) adab o'rgatishni, ularga foyda yetkazmoqni tashviq etadi. Bu fikrni Navoiy ancha kengaytirgan holda ifodalaydi:

Topting chu ayol, yaxshiliq yetkurgil,

O'rgat adabu yaxshi qiliq yetkurgil,

Har necha adab bo'lsa qattig' yetkurgil,

Xaylingga adab qilib osig' (foйда) yetkurgil.

Asar oila, qaramog'ingdagi kishilarga ega bo'lsang ularga yaxshilik qilgin. Adab o'rgat, yaxshi qiliqlardan tarbiya ber. Adabni qattiqqo'llik bilan o'rgatgin. Agar o'z oilangni adabli qilib tarbiyalasang, ularga foyda yetkazgan bo'lasan. Ko'rinib turibdiki, asl hikmat arab tilida buyruq fe'li orqali bayon etilgan. Shuning uchun Navoiy uning ma'nosini qat'iy va keskin ifodalar orqali bermoqda.

“Adab ul mar'i xayrun zahabihi”. Bu to'rtlik ham adabga tegishli. – *Adab ko'zga tashlanib ko'rinib tursa, u oltindan yaxshiroqdir.* Navoiy ana shu fikrga shoirona libos kiygazgan.

Oltin-kumush etma kasb davlat kunidin,

Kim tortar adab ulusni mehnat tunidin,

Gar yo'qtur adab ne sud oltun unidin,

Elning adabi xushroq erur oltunidin.

Davlat kuni kelganida oltin-kumush egallamoqqa zo'r berma. Chunki odamlarni (ulusni) og'irlik kechalaridan qutqaruvchi ularning adabidir. Agar kishida adab bo'lmasa, oltinning jaraqlagan ovozidan nima foyda. Elning adabi uning oltinidan ko'ra yaxshiroqdir.

“Birr ul volidayni salafun”. Bu hikmatni Navoiyning mukammal asarlar to'plami 15-jildida *“Ota-onaga mehribonlik merosdir”* deb tarjima qilingan.

Navoiy sharhi esa bunday:

Ista ota yo'lida jon fido qilmoq,

Qulluq onaga ham ulcha imkon qilmoq,

Zuhri abad istasang farovon qilmoq,

Bil oni ota-onag'a ehson qilmoq.

Ma'nosi:

Ota yo'lida joningni fido qilmoqni ista,

Onaga ham imkon boricha qulliq qilgin.

Agar yorug' kunlaring mo'l bo'lmog'ini istasang

Doimo ota-onaga ehson qilg'il.

“Min sabri zafarun”. Ya'ni **“Sabrdan zafar keladi”**. O'n ikkinchi hikmatda shu mazmun yotadi. **“Bashshir nafsika biz zafari ba'd as sabri”**. **“Bildirgin o'zinggaki, sabr tufayli zafarga erishasan”**. Demak, barcha yutuq va zafar sabrdan keyin keladi. Sabr muvaffaqiyatlarga asosdir.

Navoiy bu to'g'rida yozadi:

Nafs uyiga sabr ila imorat angla,

Besabrlig'in aning sharorat angla,

Ish sabr sori anga ishorat angla

Sabrni zafar sori bashorat angla.

Ma'nosi:

O'z uyingga sabr bilan imorat qilgin

Besabrlikni esa yomonlik deb bil.

Sabr bilan borishi kerakligini ko'rsat

Sabr zafarga eltuvchi xushxabar ekanini angla.

Xulosa:

„Nazm ul-javohir“ni o'qigan kishi islom dini – eng avvalo, ma'rifat, go'zal axloq, ezgu niyyat va solih amal qilishga hidoyat etuvchi, jaholat, riyo, xudbinlik, tanballik, zulm va zo'ravonlikni qoralaydigan muqaddas din ekanligiga yana bir karra ishonch hosil qiladi.

Shu sababli, „Nazm ul-javohir” mavzu nuqtayi nazaridan diniy asar hisoblansada, mohiyat e’tibori bilan axloqiy-didaktik asarlar sirasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 15-jild. – Toshkent: Fan, 1987.
- 2.Xurshid Davron online kutubxonasi
- 3.Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov „Navoiyshunoslik” darslik. „Tamaddun”. Toshkent 2019.
- 4.Ayrim online saytlar